




ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlari asosiy ko'rstkichlari

2023- YIL
YANVAR-IYUN

Bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun


Qurilish ishlari hajmi,
mlrd soʻmda



2023- yil yanvar-iyun oylarida, Andijon viloyatida jami **3 418,4** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **103,1 %** ni tashkil etdi.



Yillar kesimida oʻsish surʼati
iyun oyi boʻyicha



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu - oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

Shahar va tumanlar kesimida, mlrd so'mda



Kapital qurilishning pudrat usuli qurilish jarayonida qatnashayotgan ikki tomon – buyurtmachi va bosh pudratchi (pudratchi) orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi qurilish pudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish hamda boshqa ishlar shakli hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.


Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 79,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,5 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 10,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 60,9 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,6 foiz ulushni va 217,5 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari Hajm, mlrd so'm



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2023- yil yanvar-iyun

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **70,9 %** yoki **2 321,4 mlrd so‘m** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 62,0 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **1,8 %** ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 654,4 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **77,7 %** ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hisssasi 702,0 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **20,5 %** ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	2321,4	100,0
Andijon sh.	779,9	33,6
Xonobod sh.	81,0	3,5
Oltinko‘l	139,9	6,0
Andijon	208,3	9,0
Baliqchi	54,9	2,4
Bo‘ston	117,7	5,1
Buloqboshi	36,3	1,6
Jalaquduq	67,8	2,9
Izboskan	78,9	3,4
Ulug‘nor	51,4	2,2
Qo‘rg‘ontepa	118,2	5,1
Asaka	89,0	3,8
Marhamat	95,8	4,1
Shahrixon	180,1	7,7
Paxtaobod	117,7	5,1
Xo‘jaobod	105,5	4,5

**hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda*

2023- yil yanvar-iyun oylariga shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Andijon shahri (779,9 mlrd so‘m), Andijon tumanida 208,3 mlrd so‘m), Shahrixon tumanida (180,2 mlrd so‘m) va Oltinko‘l tumanida (139,9 mlrd so‘m) qayd etildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari


Korxonalar turlari bo'yicha

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,3 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,5 % punktga ko'payib, 72,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning 25,9 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,8 % punktga kamaydi.

Jamiga nisbatan ulushi



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

O'sish sur'ati

Bino va inshootlarni qurish

141,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari

110,2%

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

92,5%

Norasmiy sektor




Bino va inshootlar qurilishi 2023- yil yanvar-iyun oylari uchun

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Andijon tumani (2022- yilga nisbatan 145,9 %), Qo'rg'ontepa tumani (2022- yilga nisbatan 133,3 %), Bo'ston tumani (2022- yilga nisbatan 130,3%)ga to'g'ri keldi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Shuningdek, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi.

kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 0,4 % punktga ko'payib 92,8 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati

Fuqarolik obyektlarini qurish



39,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari

63,6 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

-


Norasmiy sektor

2023- yil yanvar-iyun oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari


Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati

(mlrd so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati

(oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Andijon tumani (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 87,1 %), Qo'rg'ontepa tumani (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 76,7 %) va Baliqchi tumani (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 73,9 %).

2023- yil yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,4 % punktga kamaydi va 0,5 % ni tashkil etdi.

Qolgan 99,5 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,4 % punktga ko'paydi.



O'sish sur'ati

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



19,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari

229,9 %


Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

2023- yil yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd so'm va foizda)

117,5	Andijon sh.	219.1
15,3	Xonobod sh.	237.7
30,3	Oltinko'l	196.1
50,8	Andijon	294.4
10,7	Baliqchi	232.4
17,9	Bo'ston	262.5
8,1	Buloqboshi	248.2
10,5	Jalaquduq	151.9
10,5	Izboskan	155.8
6,7	Ulug'nor	143.7
15,2	Qo'rg'ontepa	271.1
13,6	Asaka	160.1
10,1	Marhamat	197.5
19,0	Shahrixon	200.2
14,5	Paxtaobod	211.9
13,7	Xo'jaobod	222.0

Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



MA'LUMOT UCHUN: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Andijon tumani (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 294,4 %), Qo'rg'ontepa tumani (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 271,1 %), Bo'ston tumani (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 262,5 %) va Buloqboshi tumani (2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 248,2 %)ga to'g'ri keldi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **86,6** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 331,8** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,5 %** va **97,5 %** ni tashkil etdi.



yanvar-iyun oylarida hajm, mlrd so'm

● Davlat mulki ● Nodavlat mulk

86,6
mlrd so'm
Davlat mulki

3331,8
mlrd so'm
Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahrida (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 foizi), Oltinko'l tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 foizi) va Paxtaobod tumanida (ushbu tumanidagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 foizi) qayd etildi.

2023- yil 1- iyul holatiga qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- bino va inshootlar qurilishi 56,2 % ni tashkil etdi, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 58,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi 13,7 % darajasida qayd etildi, o'sish sur'ati 95,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 30,1 %, o'sish sur'ati 64,3 % ni tashkil etdi.

